SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

YAPONIYA SOFT POWER SIYOSATI: MILLIY MADANIYAT ORQALI XALQARO TA'SIRNI SHAKLLANTIRISH

Abdulxamidova Ruxshona Baxtiyor qizi

Turan International University

Yo'nalish: Xalqaro munosabatlar

Ilmiy rahbar: Odilov Alimardon Boxodir o'g'li, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yaponiyaning soft power (yumshoq kuch) siyosati va milliy madaniyat orqali xalqaro maydondagi ta'sirni shakllantirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot sifat yondashuvi asosida, rasmiy hujjatlar (Diplomatic Bluebook 2025, New Cool Japan Strategy, Pop-Culture Diplomacy) va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali olib borildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Yaponiya an'anaviy madaniyat (choy marosimi, ikebana, milliy oshxona), zamonaviy ommaviy madaniyat (anime, manga) hamda davlat tashabbuslari ("Cool Japan" strategiyasi, Tashqi ishlar vazirligi va Japan Foundation faoliyati) uyg'unligidan foydalanmoqda. Shu bilan birga, madaniy mashhurlik doim ham siyosiy qo'llab-quvvatlashga aylanmasligi, milliy imij va haqiqiy o'zlik o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishi hamda Janubiy Koreya va Xitoy bilan raqobat kuchayishi aniqlandi.

Kalit so'zlar

Yaponiya, soft power, yumshoq kuch, milliy madaniyat, madaniy diplomatiya, xalqaro nufuz, anime, manga, Cool Japan, xalqaro munosabatlar.

Аннотация

В данной статье анализируется политика «мягкой силы» Японии и механизмы формирования её международного влияния посредством национальной культуры. Исследование выполнено на основе качественного подхода: анализа официальных документов (Diplomatic Bluebook 2025, New Cool Japan Strategy, Pop-Culture Diplomacy) и научной литературы. Результаты показывают, что Япония сочетает традиционную культуру (чайная церемония, икебана, национальная кухня), современную массовую культуру (аниме, манга) и государственные инициативы (стратегия «Cool Japan», деятельность МИД и Japan Foundation). Вместе с тем выявлены ограничения: популярность культуры не всегда означает политическую поддержку, существует противоречие между

национальным имиджем и реальной идентичностью, а конкуренция со стороны Южной Кореи и Китая усиливается.
Ключевые слова
Япония, мягкая сила, национальная культура, культурная дипломатия, международный авторитет, аниме, манга, Cool Japan, международные отношения.
Abstract
This article examines Japan's soft power policy and the mechanisms through which the country builds international influence through national culture. The study follows a qualitative approach, analysing official documents (Diplomatic Bluebook 2025, New Cool Japan Strategy, Pop-Culture Diplomacy) and scholarly literature. The findings show that Japan combines traditional culture (tea ceremony, ikebana, national cuisine), contemporary popular culture (anime, manga) and state initiatives (the "Cool Japan" strategy, the activities of the Ministry of Foreign Affairs and the Japan Foundation). At the same time, the study identifies limitations: cultural popularity does not always translate into political support, tensions exist between the projected national image and authentic identity, and competition from South Korea and China is intensifying.
Keywords
Japan, soft power, national culture, cultural diplomacy, international influence, anime, manga, Cool Japan, international relations.

1. Kirish

Xalqaro munosabatlarda davlatning kuchi faqat uning harbiy yoki iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanmaydi. Ayrim davlatlar o‘z madaniyati, qadriyatlari va turmush tarzi orqali ham boshqa xalqlarda katta qiziqish uyg‘ota oladi. Bu holat xalqaro munosabatlar nazariyasida “Soft Power” — “yumshoq kuch” tushunchasi bilan izohlanadi. Ushbu atama amerikalik siyosatshunos Joseph S. Nye tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, davlatning majburlash o‘rniga jozibadorlik va ishonch orqali ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini anglatadi [1]. An’anaviy qattiq kuch (Hard Power) harbiy salohiyat, iqtisodiy bosim va majburlashga asoslansa, yumshoq kuch madaniyat, siyosiy qadriyatlar va tashqi siyosatning jozibadorligi orqali namoyon bo‘ladi.

Yaponiya yumshoq kuch siyosatini shakllantirish va rivojlantirish borasida alohida tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda mamlakat o‘zining xalqaro imijini qayta shakllantirishga, tinchlikparvar davlat sifatidagi mavqeini mustahkamlashga va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga katta e’tibor qaratdi. Bu jarayonda yapon madaniyati, an’anaviy san’ati, milliy oshxonasi, ta’lim tizimi, texnologik yutuqlari va zamonaviy ommaviy madaniyati muhim vositalarga aylandi.

Anime, manga, yapon kinosi, musiqasi, gastronomiyasi va an’anaviy madaniy merosi Yaponiyaning xalqaro miqyosda tanilishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Yaponiya hukumati ham milliy madaniyatning xalqaro ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan tashabbuslarni, xususan “Cool Japan” strategiyasini amalga oshirib kelmoqda.

Ilmiy adabiyotda Yaponiyaning yumshoq kuch siyosati turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Yee-Kuang Heng (2010) Yaponiya va Xitoyning yumshoq kuch strategiyalarini taqqoslab, Osiyo mintaqasida davlatlarning xalqaro jozibadorlik uchun olib borayotgan raqobatini tahlil qilgan [5]. Taku Tamaki (2019) esa “Cool Japan” strategiyasi doirasida milliy o‘zlikni xalqaro auditoriyaga taqdim etish jarayoni va davlat tomonidan shakllantiriladigan milliy imij o‘rtasidagi ziddiyatlarga e’tibor qaratgan [6]. Mazkur tadqiqotlar yumshoq kuchning nazariy asoslari va uning muammoli jihatlarini yoritadi.

Shu bilan birga, Yaponiyaning an’anaviy madaniyati, zamonaviy ommaviy madaniyati va davlat tashabbuslarini yagona tizim sifatida, rasmiy manbalarga tayangan holda ko‘rib chiqish masalasi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi xalqaro munosabatlar tizimida davlatlarning raqobatbardoshligi tobora ko‘proq ularning jozibadorligi, xalqaro imiji va madaniy ta’sir doirasi bilan bog‘liq bo‘lib bormoqda. Yaponiya tajribasini o‘rganish milliy madaniyatning xalqaro siyosatdagi o‘rnini anglash va madaniy diplomatiyaning zamonaviy mexanizmlarini tahlil qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi — Yaponiyaning yumshoq kuch siyosatini milliy madaniyat vositasida xalqaro ta’sirni shakllantirish mexanizmi sifatida o‘rganish va uning xalqaro munosabatlardagi ahamiyatini tahlil qilishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

– yumshoq kuch tushunchasining nazariy asoslarini va Yaponiyada uning shakllanish jarayonini aniqlash;

– an’anaviy madaniyat, anime va manga kabi vositalarning xalqaro ta’sirdagi rolini ko‘rsatish;

– “Cool Japan” strategiyasi va davlat institutlarining madaniy diplomatiyadagi o‘rnini yoritish;

– Yaponiya yumshoq kuch siyosatining imkoniyatlari va cheklovlarini baholash.

2. Metodlar

Tadqiqot sifat yondashuvi (qualitative approach) asosida, tavsifiy-tahliliy dizaynda amalga oshirildi. Tahlil Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladi.

2.1. Ma’lumot manbalari

Tadqiqot uchun uch guruh manbalar tanlandi:

– nazariy manba: Joseph S. Nye (2008) tomonidan yumshoq kuch va jamoatchilik diplomatiyasiga bag‘ishlangan ilmiy maqola [1];

– rasmiy hujjatlar: Yaponiya Tashqi ishlar vazirligining Diplomatic Bluebook 2025 hisoboti (madaniyat, sport va turizm diplomatiyasi bo‘limi) [3] va “Pop-Culture Diplomacy” sahifasi [2]; Yaponiya Vazirlar Mahkamasi huzuridagi idoraning New Cool Japan Strategy hujjati [4];

– ilmiy tadqiqotlar: Heng (2010) [5] va Tamaki (2019) [6] maqolalari.

2.2. Tadqiqot usullari

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: hujjatlar tahlili (rasmiy hisobot va strategiyalardagi madaniy tashabbuslarni aniqlash); tematik kontent-tahlil (madaniy vositalarni an’anaviy madaniyat, ommaviy madaniyat va davlat tashabbuslari bo‘yicha guruhlash); qiyosiy tahlil (Yaponiya tajribasini Janubiy Koreya va Xitoyning yumshoq kuch siyosati bilan solishtirish); tarixiy-tizimli yondashuv (yumshoq kuch siyosatining urushdan keyingi shakllanishini o‘rganish) hamda umumlashtirish va xulosa chiqarish.

2.3. Tahlil mezonlari

Manbalar quyidagi mezonlar bo‘yicha tahlil qilindi: (1) madaniy vositaning turi; (2) uni targ‘ib qiluvchi davlat va nodavlat institutlar; (3) xorijiy auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi; (4) siyosatning cheklovlari va muammoli jihatlari.

2.4. Tadqiqot cheklovlari

Tadqiqot ikkilamchi ma’lumotlarga tayanadi. Xalqaro reytinglar, so‘rovnomalar yoki eksport hajmi kabi miqdoriy ko‘rsatkichlar tahlilga kiritilmagan, shu sababli xulosalar sifat xarakteriga ega.

3. Natijalar

3.1. Yumshoq kuch salohiyatining shakllanishi

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, Yaponiyaning yumshoq kuch salohiyati shakllanishida Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Urushdan so‘ng mamlakat xalqaro hamjamiyat oldida yangi qiyofa yaratishga intilib, harbiy faoliyatdan ko‘ra iqtisodiy taraqqiyot, texnologik rivojlanish va xalqaro hamkorlikka e’tibor qaratdi. Keyinchalik milliy madaniyat va ta’lim sohasidagi almashinuvlar ushbu jarayonning muhim qismiga aylandi. Yaponiyaning yumshoq kuch siyosati faqat an’anaviy madaniyatni targ‘ib qilish bilan cheklanmaydi: u zamonaviy texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari, kino, animatsiya, musiqa va ta’lim sohalarini ham qamrab oladi.

3.2. An’anaviy madaniyat va milliy oshxona

Yaponiyaning an’anaviy madaniyati tarkibiga choy marosimi (Sado), gul bezash san’ati (Ikebana), milliy kiyim — kimono, xattotlik (Shodo), jang san’atlari va milliy oshxona kiradi. Sushi, ramen va boshqa milliy taomlar dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ommalashgan. Diplomatic Bluebook 2025 hisobotida xorijdagi Yaponiya diplomatik vakolatxonalari tomonidan choy marosimi, ikebana, origami, yapon filmlari, musiqa, jang san’atlari, anime, manga va milliy taomlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tadbirlar tashkil etilishi qayd etilgan [3]. Bu madaniyatning davlat tashqi siyosatida amaliy vosita sifatida qo‘llanayotganini ko‘rsatadi.

3.3. Anime, manga va zamonaviy ommaviy madaniyat

Anime va manga Yaponiya yumshoq kuch siyosatining eng ko‘zga ko‘ringan yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Ularning xalqaro ommalashuvi nafaqat badiiy uslub, balki do‘stlik, oila, mas’uliyat, tabiat va insoniy munosabatlar kabi turli jamiyatlarga yaqin mavzular bilan bog‘liq. Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi bu imkoniyatdan diplomatik faoliyatda ham foydalanadi: 2007-yilda xorijiy manga ijodkorlarini rag‘batlantirish va madaniy almashinuvni rivojlantirish maqsadida Japan International MANGA Award tashkil etilgan, 2008-yilda esa Doraemon Yaponiya Anime elchisi etib tayinlangan [2]. Bundan tashqari, World Cosplay Summit kabi xalqaro

tadbirlar turli mamlakatlardan kelgan yoshlar o‘rtasida madaniy muloqot va ijodiy hamkorlik uchun imkoniyat yaratmoqda.

3.4. “Cool Japan” strategiyasi va davlat institutlari

“Cool Japan” tushunchasi dastlab Yaponiyaning xorijda ommalashib borayotgan zamonaviy madaniy mahsulotlari bilan bog‘liq holda qo‘llanila boshlagan, keyinchalik uning qamrovi anime, manga, musiqa, moda, gastronomiya, turizm va dizayn yo‘nalishlarini o‘z ichiga olgan. Yaponiya Vazirlar Mahkamasi huzuridagi idoraning rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, strategiyaning muhim maqsadlari Yaponiya brendini mustahkamlash, mamlakatga nisbatan xorijiy auditoriyaning ijobiy munosabatini shakllantirish va yumshoq kuch salohiyatini oshirishdan iborat [4].

Strategiyaning yana bir xususiyati davlat va xususiy sektor hamkorligidir: madaniy mahsulotlarni yaratish va xalqaro bozorga olib chiqishda davlat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar, ijodkorlar va turizm sohasi vakillari ishtirok etadi. Tashqi ishlar vazirligi xorijda madaniyat kunlari, yapon tili tanlovlari, kino namoyishlari, ko‘rgazmalar va festivallar tashkil etadi, Japan Foundation esa yapon tili va madaniyatini targ‘ib qilish, ta’lim hamda ilmiy almashinuv dasturlarini amalga oshiradi.

3.5. Ilmiy adabiyotda aniqlangan muammolar

Tamaki (2019) tadqiqotida “Cool Japan” doirasida Yaponiya milliy o‘zligini xalqaro auditoriyaga taqdim etish jarayoni va davlat tomonidan shakllantiriladigan milliy imij o‘rtasida ziddiyatlar mavjudligi ko‘rsatilgan [6]. Heng (2010) esa Osiyo mintaqasida Yaponiya va Xitoyning yumshoq kuch borasidagi raqobatini tahlil qilgan [5].

4. Muhokama

4.1. Natijalar talqini

Olingan natijalar Nye (2008) tomonidan ilgari surilgan jozibadorlik orqali ta’sir o‘tkazish g‘oyasini Yaponiya misolida tasdiqlaydi [1]. Yaponiya an’anaviy madaniyatni faqat tarixiy meros sifatida saqlab qolmay, undan mamlakatning xalqaro obro‘sini oshirish va xorijiy xalqlar bilan madaniy aloqalarni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanmoqda. Madaniy ta’sir kundalik hayot orqali ham shakllanadi: sushi yoki ramen bilan tanishgan inson Yaponiya madaniyatiga qiziqib qolishi, keyinchalik esa mamlakat tarixi, tili va urf-odatlarini o‘rganishga o‘tishi mumkin. Anime va manga esa oddiy

ko‘ngilochar mahsulotlar bo‘lish bilan birga, Yaponiyaning xalqaro madaniy jozibadorligini oshiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

“Cool Japan” strategiyasi madaniyatni milliy meros bilan cheklamay, uni iqtisodiy va diplomatik imkoniyatlarni kengaytiruvchi resurs sifatida ko‘radi va mamlakatning tashqi siyosiy hamda iqtisodiy manfaatlari bilan bog‘lovchi mexanizm vazifasini bajaradi [4]. Biroq bunday strategiyaning muvaffaqiyatini faqat madaniy mahsulotlar eksporti hajmi bilan emas, balki ular orqali xorijiy auditoriyada qanday taassurot va qiziqish shakllanishi bilan ham baholash lozim.

4.2. Yumshoq kuch siyosatining cheklovlari

Birinchidan, madaniy mahsulotlarning ommalashuvi har doim ham davlatning siyosiy maqsadlariga erishishini anglatmaydi. Masalan, xorijiy auditoriyaning anime yoki manga mahsulotlariga qiziqishi Yaponiyaning barcha tashqi siyosiy qarashlarini qo‘llab-quvvatlashini bildirmaydi. Ikkinchidan, milliy madaniyatni davlat siyosati doirasida targ‘ib qilishda uning tabiiyligi va mustaqilligini saqlab qolish muhim: madaniyat faqat iqtisodiy yoki siyosiy manfaatlarga xizmat qiluvchi vositaga aylantirilsa, uning haqiqiy jozibadorligi pasayishi mumkin. Tamaki (2019) aniqlagan milliy o‘zlik va davlat shakllantiradigan imij o‘rtasidagi ziddiyat aynan shu muammoga ishora qiladi [6].

4.3. Xalqaro madaniy raqobat

Xalqaro madaniy raqobatning kuchayishi Yaponiya oldida yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Janubiy Koreya K-pop va koreys seriallari orqali qisqa vaqt ichida katta xalqaro auditoriyani shakllantira oldi, Xitoy esa Konfutsiy institutlari va madaniy almashinuv dasturlaridan foydalanmoqda. Bu holat Osiyo mintaqasida yumshoq kuch raqobatbardoshligini oshirmoqda va Heng (2010) tomonidan tahlil qilingan raqobat muhitining davom etayotganini ko‘rsatadi [5]. Shu sababli Yaponiya o‘zining an’anaviy madaniyati va uzoq yillik ommaviy madaniyat tajribasini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirishi, madaniy diplomatiyasini doimiy takomillashtirishi va yosh avlod bilan aloqalarni kuchaytirishi zarur.

4.4. O‘zbekiston uchun ahamiyati

Yaponiya tajribasi O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy merosi, milliy urf-odatlari, me’morchiligi, hunarmandchiligi va

zamonaviy ijodiy salohiyatini xalqaro miqyosda kengroq targ‘ib qilishi mumkin. Bunda madaniyatni shunchaki namoyish etish bilan cheklanmasdan, uni ta’lim, turizm, xalqaro hamkorlik va jamoatchilik diplomatiyasi bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Muallifning fikricha, O‘zbekistonning yumshoq kuch salohiyatini rivojlantirishda milliy o‘zlikni saqlagan holda, uni zamonaviy xalqaro auditoriyaga tushunarli va jozibador shaklda yetkazish asosiy vazifalardan biri bo‘lishi kerak.

4.5. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi yo‘nalishlar

Tadqiqot sifat tahliliga asoslangani sababli Yaponiya yumshoq kuchining xorijiy auditoriyaga haqiqiy ta’sir darajasi miqdoriy jihatdan baholanmadi. Kelgusi tadqiqotlarda xalqaro reytinglar, so‘rovnoma natijalari va Yaponiya, Janubiy Koreya hamda Xitoy tajribasini batafsil qiyosiy tahlil qilish, shuningdek O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xalqaro maydonda ta’sir kuchini oshirish uchun faqat iqtisodiy yoki harbiy salohiyatning o‘zi yetarli emas. Yaponiya an’anaviy madaniyati, zamonaviy ommaviy madaniyat mahsulotlari, ta’lim va madaniy almashinuv dasturlari orqali xorijiy auditoriyada ijobiy qiyofa shakllantirishga erishdi; ayniqsa anime, manga va milliy oshxona mamlakat bilan tanishishning o‘ziga xos vositasiga aylandi. “Cool Japan” strategiyasi, Tashqi ishlar vazirligi va Japan Foundation faoliyati bu jarayonni institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlamoqda.

Shu bilan birga, yumshoq kuch imkoniyatlari cheksiz emas: madaniyatning mashhurligi boshqa davlatlarning siyosiy qarashlariga bevosita ta’sir qilmasligi mumkin, davlat shakllantirgan imij va haqiqiy milliy o‘zlik o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelishi mumkin, xalqaro madaniy raqobat esa kuchayib bormoqda. Shu sababli madaniy siyosatni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borish zarur. Yaponiya tajribasi O‘zbekiston uchun milliy o‘zlikni saqlagan holda madaniy merosni xalqaro auditoriyaga jozibador shaklda yetkazish borasida o‘rganishga arziydigan misol bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nye, J. S. (2008). Public Diplomacy and Soft Power. The ANNALS of the American Academy of Political and Social Science, 616(1), 94–109. https://doi.org/10.1177/0002716207311699

2. Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2026, April 22). Pop-Culture Diplomacy. https://www.mofa.go.jp/policy/culture/exchange/pop/

3. Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025). Diplomatic Bluebook 2025: Chapter 3, Section 2 — Cultural, Sports, and Tourism Diplomacy. https://www.mofa.go.jp/policy/other/bluebook/2025/en_html/chapter3/c030402.html

4. Cabinet Office, Government of Japan. (2024, June 4). New Cool Japan Strategy. https://www.cao.go.jp/cool_japan/aratana/aratana.html

5. Heng, Y.-K. (2010). Mirror, mirror on the wall, who is the softest of them all? Evaluating Japanese and Chinese strategies in the ‘soft’ power competition era. International Relations of the Asia-Pacific, 10(2), 275–304. https://doi.org/10.1093/irap/lcp023

6. Tamaki, T. (2019). Repackaging national identity: Cool Japan and the resilience of Japanese identity narratives. Asian Journal of Political Science, 27(1), 108–126. https://doi.org/10.1080/02185377.2019.1594323